

## FUZULIY SHE'RIYATIDA YURT TA'RIFI

*Ubaydullayeva Maftunaxon Omonboy qizi  
Qo'qon davlat pedagogika instituti,*

*Inomova Dilobarxon Ikromjon qizi  
Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'rta Osiyo xalqlari adabiyotida o'zining betakror asalari bilan tanilgan Muhammad Fuzuliy ijodining yurtimizda o'rganilishi yoritilgan. Shuningdek ikki buyuk xalq adabiyoti vakillari g'azalalaridagi mushtaraklik g'oyalari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** "g'arb turkchasi", Chig'atoy tili, muxammas, "G'aroyib us-sig'ar", tatabbu.

## DEFINITION OF MOTHERLAND IN FUZULI'S POETRY

**Annotation.** This article is about the study of the works of Mukhammad Fuzuli, who is famous for his unique works in the literature of the people's of the Central Asia. As well as, there are comments on the ideas of commonality in the ghazals of the two great folk literatures.

## ОПИСАНИЕ РОДИНЫ В ПОЭЗИИ ФИЗУЛИ

**Аннотация.** В данной статье речь идет об изучении творчество Мухаммада Фузули, известного своими уникальными произведениями в литературе народов Средней Азии. А также комментарии к идеям общности в газелях представителей двух великих народов литературы.

Jahon adabiyoti xazinasiga beba bo'lib qo'shilgan shohona asarlari bilan O'rta Osiyo xalqlarining sevimli shoirlaridan biriga aylangan Muhammad Fuzuliy g'azallarini eshitmagan inson kam topiladi. Sharq she'riyati, shu jumladan, O'rta Osiyo xalqlari poeziyasi o'tmish klassik adabiyotning barakali ta'siri ostida takomil topgandir. Xoh O'rta Osyoda, xoh Eronda, bo'lsin biror shoir ulug' sharq klassik ijodkorlari Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Navoiy, Bedil, Fuzuliy va boshqa mashhur so'z ustalarining maktabini o'tmay turib she'riyat maydoniga chiqmagan. Har bir ko'zga ko'ringan shoir ijodining kamolga yetishuvida bu ustozlar ijodining samarali ta'siri ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. Shuning bilan birga har bir shoir u ustozlardan she'riyat ta'limini olar ekan, o'z ijodiy intilishlariga ko'ra yana ularning har biriga alohida ixlos qo'ydi.

Fuzuliy ijodi turkiy xalqlar adabiyoti taraqqiyotiga g'oyat katta ta'sir ko'rsatgan desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, o'zbek she'riyatida undan ilhom olmagan biror shoirni topish qiyin. Uning nomini Navoiy nomi bilan hamisha yonma-yon eshitib kelganmiz. Agar Navoiy bo'limganda Fuzuliy ijodini, agar Fuzuliy bo'limganda Mashrab ijodini tasavvur qilib bo'lmasdi. Haqiqatan ham, Fuzuliy devoni asrlar osha Navoiyniki bilan bir qatorda maktab-madrasalarda o'qitib kelingan. XX asr jadid munaqqidi Vadud Mahmud o'z maqolasida Fuzuliyini "g'arb turkchasing eng buyuk ustodi" deya ta'riflaydi va Fuzuliy tilini ozarbayjoncha emas, "g'arb turkchasi" deb ataydi. "Fuzuliyning Turkistonga tarqalishidan so'ng bizda g'arb turkchasing ta'siri kuchaydi va ikki lahja bilan yozaturg'on shoirlar

ko‘runa boshladi. Hatto aytish mumkinki, Fuzuliy bilan birga bizda ikkinchi lahja ham tug‘di. Chunki Chig‘atoy tili soyasida yashab turib ham “g‘arb turkchasi” bilan devonlar tuzgan shoirlar kam emasdир. ...xolis chig‘atoycha hech bir shoir yo‘qki, Fuzuliy yo‘lida ham ba’zi parchalar yozmag‘on yoki unga tatabbu qilmag‘on bo‘lsun.”

Adabiyotimiz tarixida ijodining ko‘lami, badiiy salomoq dor asarlari bilan Navoiydan keying o‘rinda turuvchi mashhur ijodkor Ogahiy ham Ozarbayjon xalqining genial shoiri Fuzuliy ijodiga ham chuqur hurmat bilan qaragan, uning qator g‘azallariga muxammas bog‘lagan. Fuzuliy g‘azallariga nazira – o‘xshatma tariqasida “g‘arb turkchasi” – ozarbayjon tilida ayrim g‘azallar yozgan. Ogahiyning Fuzuliy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarida uning Fuzuliyga bir ustoz sifatida qaraganligi seziladi. Ogahiy muxammas bog‘lash uchun g‘azal tanlaganda Fuzuliyning chuqur ijtimoiy mazmunli g‘azallarini oladi. Bir misol:

*Jahon ahli na bilsun, Ogahiy, mehr-u vafo qadrin,  
Bilurmu shaparaklar shom aro nur-u ziyo qadrin,  
Ne tong, gar bilmasa bedardlar zavq-u davo qadrin,  
Asiri nafsdur ahli jahon bilmaz fano qadrin,  
Fuzuliy, ishq atvori sanga anjoq musallamdur.*

Keltirilgan muxammasda shoir o‘shanday fikrlarini go‘yo Fuzuliy yordamida yana bir marta tasdiqlab olmoqchi bo‘ladi, o‘z g‘oyalarini targ‘ib etishda Fuzuliy obro‘yidan foydalanadi. Ogahiyning Fuzuliy ijodiga murojaat qilishiga, unga muxammas bog‘lashiga sabab ana shu g‘oya, maqsad birligidir. Yana bir misol:

*Bu bog‘ ichra gul oso har kishikim sof botindur,  
Visolin gulshanining rohati naqdig‘a xozindur,  
Tamomi orzudin Ogahiydek tinch-u emindur,  
Fuzuliy, xasta dil to ravzai ko‘yingda sokindur,  
Tamannoyi bihisht-u mayli gulzori eram qilmaz.*

Ikkala shoir satrlarining ma’no, shakl jihatidan birlashib ketganligi ravshan. Bunda shoirlar o‘zlarining inson orzusi, baxt-saodati kuychisi ekanliklarini bayon qiladi.

Fuzuliy g‘azalida asosiy mavzu sevgi bo‘lib, shoir sevgi olamida mehr-u vafo yo‘qligidan shikoyat qiladi. G‘azalda sevgi vafo-sadoqat bilan bog‘liqligi, sevish uchun tashqi ko‘rinishgina yetarli emasligi, sevgida tuyg‘udan tashqari bevosita aqlning ishtiroti muhimligi uqtiriladi. Bu asosiy fikr keltirilgan ikki bandda Ogahiy misralari yordamida yanada ravshanlashgan, kengaytirilgan. Muxammasning oxirgi bandida Ogahiyning ustaligi, ayniqsa, seziladi. Fuzuliyda oxirgi bayt shoirning o‘zi bilan o‘zi o‘rtasida so‘z o‘yini tarzida tuzilgan; Fuzuliyning o‘zi: Fuzuliy, go‘zallarda vafo bor, desa aldanma, shoir so‘zi yolg‘on, deydi. Fuzuliy g‘azali xotimasida so‘z o‘yini orqali sevgi uchun vafo, sadoqat zarurligini ta‘kidlamoqchi, so‘z o‘yini bu yerda san’at na’munasi, Ogahiy o‘z qo‘shimchasida mana shu ruhni to‘la saqlab qoladi.

Fuzuliy ijodi ta’siri, uning asarlariga tatabbu’lar bitish XVIII – XIX asrlar Qo‘qon adabiy muhitida yaqqol namoyon bo‘ladi. “XIX asrning bиринчи yarmida tatabbu’navislik eng rivojlangan adabiy muhit Qo‘qonda edi”. Fuzuliy g‘azallariga deyarli barcha shoirlar tatabbu’ yozganlar.

G‘azalning quyidagi bayti esa Fuzuliydan ko‘ra, Navoiyni yodga soladi:

*Ortturur har lahza nosih pand ila g‘aflat menga,  
El aro andog‘ki, uyqu boisin afsona tut.*

Chunki – “G‘aroyib us-sig‘ar”da shunga o‘xshash baytga duch kelamiz:

*Ko‘zima ul vajhdin dermen yuzung afsonasin –  
Kim, sevarlar uyqusizlar doimo afsonani.*

Sovet davri adabiyotida bizningcha davr taqozosi bilan Fuzuliy asarlari talqini, g‘oyaviy badiiy xususiyatlari buzib ko‘rsatildi. Jumladan, shoirning muhabbatni haqida gapirar ekan, yerdagi – avom muhabbatini tarzda tushuntiradi, zero avom muhabbatni ham ular tahlilidan ko‘ra yaxshiroqdir. Filologiya fanlari kandidanti Xolid Rasul maqolasida shunday jumlalar keltiriladi: “Fuzuliyning muhabbat lirikasi inson yuragining orzu xohishlarini din-shariat qoidalaridan ustun qo‘yadi. “Xushdur manga may, sanga ibodat, ey shayx” degan shoirning ishqisi insonni yuksaltgan, eng yaxshi fazilatlarni aks ettirgan, falsafiy mushohadalarni ifodalovchi oljanob muhabbatdir”.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Fuzuliy asarlari o‘zbek mumtoz adabiyotida Navoiydan keyingi o‘rinda sevib o‘qiladigan asarlar qatoriga kirgan. Navoiyxonlik, bedilxonlik kabi fuzuliyxonlik davralari ham bo‘lib, Fuzuliy g‘azallari o‘qilgan va tinglangan. Fuzuliy asarlari bir necha bor ko‘chirilib, kitobxonlarning sevimli kitobiga aylangan. Madrasalarda o‘qitishda alohida o‘ringa ega bo‘lgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Vadud Mahmud. Fuzuliyi Bag‘dodiy. Maqola. “Maorif va o‘qituvchi” jurnali, 1925 yil, 4-son.
2. Fayzulloev B. O‘zbek she’riyatida tatabbu’ tarixi va mahorat masalalari (XVII- XIX asrlar va XX asr boshlari g‘azalchiligi asosida): Filol. fan. nomz.diss. avt. -Toshkent, 2002. 17-bet.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. G‘aroyib us-sig‘ar. 20 tomluk. T. 3. – Toshkent: Fan, 1988. - B. 461.
4. Muhammad Fuzuliy asarlar. Toshkent: 1968. 2 tomlik. 1-tom, 13-bet.